

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA ISKANDAR-ODIL SHOH SIFATIDA YORITILISHI

("SADDI ISKANDARIY" ASARI MISOLIDA)

Abdullayeva Nilufar Islomjon qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti

o'zbek tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi

+99891 654 77 15 abdullayevanilufar485@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiy ijodiga mansub bo'lgan "Xamsa" asarining yakunlovchi dostoni hisoblangan "Saddi Iskandariy" dostoni haqida. Maqlolada asarda keltirib o'tilgan odil shoh obrazinining yoritilishi haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: "Xamsa" asari, doston, tarixiy shaxs, odil shoh obrazi, adolat.

Аннотация: Данная статья посвящена заключительному эпосу произведения Алишера Навои "Хамса". В статье рассматривается трактовка образа праведного царя, упомянутого в произведении.

Ключевые слова: произведение "Хамса", эпос, историческое лицо, образ праведного царя, справедливость.

Abstract: This article is about the epic "Saddi Iskandari" which is the final epic of the "Khamsa" work by Alisher Navoi

Key words: "Khamsa" work, epic, historical person, image of righteous king, justice.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy haqida so'z yuritar ekanmiz, uning bizga qoldirgan asarlari, ibrat bo'la oladigan hayot yo'lini ham eslab o'tmay ilojimiz yo'q. Xalqi farovonligi yo'lida beminnat qilgan xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim.

U asosan o'zining ko'plab asarlarida Qur'oni Karim oyatlariga tayangani, uning uchun birlamchi manba bo'lganligi yaqqol sezilib turadi. Xususan, biz so'z yuritadigan "Saddi Iskandariy" dostonida ham xuddi shunday "Saddi Iskandariy" dostonining lug'aviy ma'nosi - "Iskandar devori".

U "Xamsa" asarining yakunlovchi dostoni hisoblanadi. Asar 89 bob, 7215 baytdan iborat bo'lib, Navoiy ijodidagi hajman eng yirik epik asardir. Doston aruzning mutaqorib bahrida turkiy tilda yozilgan. Xamsanavislikning buyuk namoyondalari: Nizomiy Ganjaviy, Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar Iskandar to'g'risida doston yozib, o'z "Xamsa"lariga kiritganlar.

Dastlab musulmon olamida Qur'oni Karimning Kahf surasida nomi zikr qilingan hukmdor Zulqarnayn hamda yunon sarkardasi va davlat arbobi Aleksandrni bitta shaxs deb bilishgan.

Sharqda Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhur bo'lgan. Mazkur Iskandarnomalarga Iskandar timsolidagi Aleksandr faoliyatini mavzu qilib olingan.

Navoiy o'z asarida, safdoshlaridan farqli ish tutgani va buning uchun ko'plab qiyinchiliklarga ro'baro' bo'lganini yozadi. Navoiy bu o'rinda o'z asarida Iskandar haqidagi boblar izchilligining Qur'onidagi Zulqarnayn haqidagi oyatlarga hamda tarixiy shaxs Aleksandr faoliyatiga to'g'ri kelishini nazarda tutgan. Dostonning

"Saddi Iskandariy" deb nomlanishida ham Qur'oni Karimning Navoiy uchun birinchi manba bo'lganligi seziladi.

Navoiy talqinida Iskandar odil shoh, u dunyoni kufrdan, jaholatdan tozalab, butun dunyoda adolatni joriy etish, bashariy tartib-qoidalarni katta olamdag'i tartib-qoidalarga muvofiqlashtirish maqsadida yurishlar qilgan. Buni esa so'fiyona talqin qilib, dostonidagi muqaddima boblar, Iskandar voqelari ham shoirning tasavvufiy qarashlarini keng qamrovli ekanligini anglatadi. Masalan, Iskandar shisha sandiq yasab, dengiz tubiga tushadi va turli ajoyib manzaralarga guvoh bo'lib, vataniga qaytadi. U vafot etayotganidan yaqinlaridan uning qo'lini tobutdan chiqarib qo'yishlarini so'raydi. Asarda Navoiy buni o'zgacha talqinda tahlil qiladi, insonni turli hoy-u havaslarga ergashmaslikka, butun jahonni egallagan Iskandar ham hech narsasiz ketayotganligiga majoziy ma'noda ishora qiladi va buni chiroyli tarzda yoritib beradi.

Hech o'ylanmay aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiy bundan bir necha asr avval bugungi kundagi muammolar va kishilar tabiatidagi kechinmalarni yaqqol ochib bera olgan shaxs.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. "Xamsa". "Saddi Iskandariy" dostoni.-T.; Yoshlar matbuoti, 2023.
2. Jalolova Jamila Tuxsanovna. "Saddi Iskandariy" dostonining umumiyl tavsifi maqolasi. "Uchinchi renessans:ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti istiqbollari". 2021